

Date: 5th April-2025

ILK BOLALIK DAVRINING PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLAR

Abzalova Manija Suxrobovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi

1 bosqich 108 guruh talabasi +998881490807

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o’qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Yo’ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Katta o’qituvchi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi

<https://orcid.org/0009-0005-2549-6959>

tojiddinyuldashev1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk bolalik davrining (1 yoshdan 3 yoshgacha) psixik rivojlanish xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Mazkur bosqichda bola psixikasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lib, emotsional holati, nutqi, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Tadqiqotda bolaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar – genetika, atrof-muhit, oilaviy tarbiya va pedagogik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada ilk bolalik yoshida bola nutqining rivojlanish jarayoni, uning tafakkurining shakllanishi hamda muloqot va ijtimoiy muhitga moslashishi ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi. Shuningdek, bu bosqichdagi psixik rivojlanishning buzilish sabablari va ularni bartaraf etish usullari haqida ham fikr yuritiladi. Maqola psixologlar, pedagoglar, defektologlar, ota-onalar va ilk bolalik davrida bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Mazkur tadqiqot bolaning to‘g‘ri rivojlanishi uchun muhim tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: ilk bolalik davri, psixik rivojlanish, emotsional rivojlanish, nutq shakllanishi, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, bola psixologiyasi, pedagogik yondashuvlar, tarbiya, rivojlanish omillari.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются особенности психического развития в раннем детстве (от 1 до 3 лет). В этот период происходят значительные изменения в психике ребенка, формируются его эмоциональное состояние, речь, мышление и социальные навыки. В исследовании анализируются основные факторы, влияющие на развитие ребенка, такие как генетика, окружающая среда, семейное воспитание и педагогические подходы. В статье рассматриваются процессы формирования речи, развития мышления, а также адаптации ребенка к социальному взаимодействию. Также анализируются причины возможных

Date: 5th April-2025



нарушений психического развития и способы их коррекции. Статья будет полезна для психологов, педагогов, дефектологов, родителей и специалистов, работающих с детьми раннего возраста. В исследовании также содержатся рекомендации, способствующие правильному развитию ребенка.

Ключевые слова: ранний детский возраст, психическое развитие, эмоциональное развитие, формирование речи, когнитивное развитие, социальная адаптация, детская психология, педагогические подходы, воспитание, факторы развития.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the characteristics of psychological development in early childhood (ages 1 to 3). During this period, significant changes occur in a child's psyche, including the formation of emotional states, speech, thinking, and social skills. The study examines key factors influencing child development, such as genetics, environment, family upbringing, and pedagogical approaches. The article explores the process of speech development, cognitive growth, and the child's adaptation to social interactions. It also discusses possible causes of psychological development disorders and ways to address them. This study will be useful for psychologists, educators, speech therapists, parents, and specialists working with young children. Additionally, it provides recommendations to support a child's proper development.

Key words: early childhood, psychological development, emotional development, speech formation, cognitive development, social adaptation, child psychology, pedagogical approaches, upbringing, developmental factors.

Ilk bolalik davri (1 yoshdan 3 yoshgacha) inson psixik rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning idrok qilish, xotira, tafakkur, nutq va ijtimoiy moslashuv kabi qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Bolaning ushbu bosqichdagi rivojlanishi uning keyingi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ilk bolalik davrida olingan tajriba va tarbiya bolaning shaxsiyati hamda aqliy salohiyatini belgilaydi. Ushbu maqolada ilk bolalik davrida bolaning psixik rivojlanishi qanday sodir bo'lishi, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar va muhim jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik rivojlanish jarayonidagi asosiy xususiyatlar, ularni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash usullari ham ko'rib chiqiladi.

Ilk bolalik davrining psixik rivojlanish yo'naliishlari. Ilk bolalik davridagi psixik rivojlanish quyidagi asosiy yo'naliishlar bo'yicha shakllanadi:

1. Emotsional rivojlanish

Bolalar bu yoshda o'z his-tuyg'ularini faol ifoda eta boshlaydilar.

Onasi yoki unga yaqin kishilarga bog'lanish kuchayadi, ajralish tashvishlari paydo bo'lishi mumkin. Hissiyotlar turlicha namoyon bo'lib, bolaning kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi.

Bog'lanish (attachment) – bu yoshda bola asosiy parvarish qiluvchi shaxs (odatda onasi) bilan kuchli hissiy aloqaga ega bo'ladi. Bu aloqaning sifatli bo'lishi bolaning kelajakdagi ijtimoiy va hissiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Ajralish tashvishi (separation anxiety) – 6 oylikdan boshlab bola begonalardan cho'chiy boshlaydi va onasidan uzoqlashishga qarshilik qiladi.

Date: 5th April-2025

Hissiyotlarni boshqarish – 2-3 yoshga kelib bola o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va nazorat qilishni o‘rganadi. Masalan, g‘azablanganida yig‘lash yoki urishish o‘rniga, o‘z hissiyotlarini so‘z bilan ifoda etishga harakat qiladi.

2. Kognitiv rivojlanish (idrok va tafakkur shakllanishi)

Bola atrof-muhitni faol kuzatib, yangi narsalarni o‘rganadi. Oddiy sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish qobiliyati rivojlnana din. Tasavvur va ijodiy tafakkur shakllanib boradi.

Ob’ekt doimiyligi (object permanence) – 8-12 oylar orasida bola ob’ektlarni izlay boshlaydi va ular ko‘zdan g‘oyib bo‘lsa ham mavjudligini tushunadi.

Sabab-oqibatni tushunish – bola o‘z harakatlari natijasini kuzata boshlaydi. Masalan, agar u o‘yinchoqni tushirib yuborsa, u yerga tushishini biladi.

Tafakkur va tasavvur rivojlanishi – 2-3 yoshga kelib, bola turli predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi va o‘yinlarda tasavvuridan foydalanadi.

3. Nutq rivojlanishi

Dastlabki so‘zlar paydo bo‘ladi, so‘z boyligi asta-sekin kengayadi. Bola o‘z fikrlarini ifodalashga intiladi. Nutq rivojlanishining jadalligi oiladagi muloqot darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

1 yoshda – ilk so‘zlarni aytma boshlaydi.

2 yoshda – oddiy gaplarni tuza boshlaydi, 200-300 so‘zdan foydalanadi.

3 yoshda – murakkab gaplarni shakllantiradi, faol muloqot qiladi.

Nutq rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar: Ota-onalar bilan doimiy muloqot Qo‘shiqlar, she’rlar va ertaklar O‘yinchoqlar va rasmlı kitoblar bilan ishslash

4. Ijtimoiy moslashuv va muloqot qobiliyatları

Bola boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi. U ijtimoiy qoidalarni tushuna boshlaydi va atrofdagilarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Mustaqillik hissi shakllanadi, bola o‘ziga xizmat qilishni o‘rganadi. Taqlid qilish – bola kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilib, ijtimoiy qoidalarni o‘rganadi.

O‘yin orqali o‘rganish – turli rolli o‘yinlar (shifokor, haydovchi, ona, bolalar bog‘chasi o‘yinlari) orqali bola hayotiy vaziyatlarni tushunadi.

O‘z-o‘ziga xizmat qilish – 3 yoshdan bola o‘z kiyimlarini kiyish, ovqatlanish kabi oddiy ishlarni bajara oladi.

Ilk bolalik davrida psixik rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar

Bolalarning psixik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Biologik omillar Genetik xususiyatlar va irsiy omillar. Markaziy asab tizimining rivojlanish darajasi. Sog‘liq holati va fiziologik yetuklik.

Genetik xususiyatlar – bolaning intellektual va emotsiyal rivojlanishi irsiyatga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sog‘liq holati – jismoniy rivojlanishdagi muammolar psixik rivojlanishga ham ta’sir qiladi.

Markaziy asab tizimi rivojlanishi – diqqat, xotira va tafakkur qobiliyatları uchun muhim.

Date: 5th April-2025

2. Ijtimoiy-muhit omillari: Oilaviy tarbiya va ota-onaning bolaning rivojlanishiga ta'sir. O'yin va muloqot muhitining sifati. Pedagogik ta'lim va ta'lim berish usullari.

Oilaviy tarbiya – ota-onaning bolaning psixik rivojlanishidagi roli katta.

Atrof-muhit – bolaning o'sishi uchun xavfsiz va rivojlanishga mos muhit zarur.

Pedagogik ta'sir – tarbiyachilar va o'qituvchilarning munosabati bolaning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

3. Psixologik omillar: Bolaning individual temperamenti va xarakteri. Stress va tashvish holatlari. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi emotsional aloqaning sifati.

Temperament va xarakter – ba'zi bolalar tabiatan faolroq, ba'zilari esa tortinchoq bo'lishi mumkin.

Stress va emotsional barqarorlik – doimiy stress bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Rag'batlantirish va e'tibor – bolaning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish buzilishlari va ularni oldini olish

1. Nutq rivojlanishining orqada qolishi

Sabablari: Kam muloqot qilish, Nevrologik muammolar, Irsiy omillar,

Oldini olish usullari: Kitob o'qish, Bola bilan doimiy muloqot qilish, Ertaklar va she'rlarni o'rgatish

2. Diqqat va xotira muammolar

Sabablari: Nevrologik omillar, Etarlicha stimulyatsiya bo'lmasligi

Oldini olish usullari: Rasmlı kitoblar va ta'limiy o'yinlar, O'yin orqali o'rgatish

3. Ijtimoiy moslashuvdagi muammolar

Sabablari: Oilaviy tarbiya muammolar, Kam muloqot qilish

Oldini olish usullari: Bolani jamoaviy o'yinlarga jalb qilish, Emotsional qo'llab-quvvatlash

Ba'zan bolalar psixik rivojlanishida muammolar kuzatilishi mumkin. Ushbu muammolar sababli bolaning nutqi, emotsional holati yoki ijtimoiy qobiliyatları sekinlashishi mumkin. Eng ko'p uchraydigan muammolar:

Nutq rivojlanishining orqada qolishi – bola so'z boyligini kengaytirishda yoki gap tuzishda qiyinchilikka duch keladi. Diqqat va xotira sustligi – bolaning yangi ma'lumotlarni eslab qolish qobiliyati past bo'lishi mumkin.

Emotsional va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari – bola boshqa bolalar yoki kattalar bilan muloqot qilishda muammolarga duch keladi.

Muammolarni oldini olish chorralari:

Bolaga ko'proq e'tibor berish, u bilan sifatli muloqot qilish.

Uning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rag'batlantirish.

O'yin, kitob o'qish va ijodiy mashg'ulotlar orqali tafakkurini rivojlantirish.

Zarur hollarda mutaxassis (logoped, psixolog) maslahatiga murojaat qilish.

XULOSA

Ilk bolalik davri inson hayotidagi eng muhim va hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bola nafaqat jismoniy, balki psixologik, emotsional va ijtimoiy

Date: 5th April-2025



jihatdan ham jadal rivojlanadi. Aynan shu yosh oralig‘ida tafakkur, nutq, hissiy munosabat va atrof-muhitni anglash qobiliyatları shakllanadi. Shuning uchun bolaning bu davrdagi rivojlanishi kelajakdagi shaxsiyati, bilim olish qobiliyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish bir necha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshadi. Emotsional rivojlanish bolaga xavfsizlik hissini berib, uning keyingi hayotidagi hissiy barqarorligiga asos yaratadi. Nutq rivojlanishi bolaning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va jamiyat bilan muloqot qilishga yordam beradi. Kognitiv rivojlanish esa bolaning tafakkur jarayonlarini shakllantirib, mustaqil o‘rganish va yangi bilimlarni egallash qobiliyatiga zamin yaratadi. Ijtimoiy rivojlanish orqali esa bola o‘z xulq-atvorini boshqarish, jamoa bilan ishlash va o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qilishni o‘rganadi. Bolaning ilk yillari psixik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: biologik va ijtimoiy-muhit omillari. Biologik omillarga genetik meros, jismoniy sog‘liq, asab tizimining rivojlanishi kiradi. Ijtimoiy-muhit omillari esa bola o‘sayotgan oilaviy muhit, pedagogik ta’sir va uning atrofidagi insonlar bilan o‘zaro munosabatlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, ota-onalar va tarbiyachilar bolaning psixik rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ularning mehribonligi, e’tibori va to‘g‘ri pedagogik yondashuvi bolaning sog‘lom rivojlanishiga asos bo‘ladi. Biroq, ba’zi hollarda bolaning psixik rivojlanishida turli muammolar kuzatilishi mumkin. Masalan, nutq rivojlanishining sustligi, diqqat va xotira muammolari, emotsional beqarorlik yoki ijtimoiy moslashuvdagagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Bu muammolarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun ota-onalar va pedagoglar bolaga to‘g‘ri tarbiya va rivojlanish imkoniyatlarini yaratishlari lozim. Kitob o‘qish, ta’limiy o‘yinlar o‘ynash, bolaning qiziqishlarini rag‘batlantirish va unga doimiy e’tibor qaratish bu borada juda muhim sanaladi. Shunday qilib, ilk bolalik davridagi psixik rivojlanish bola hayotining keyingi bosqichlarida uning muvaffaqiyatli va baxtli inson bo‘lishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ushbu bosqichda bola uchun eng muhim jihat – mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, uning tabiiy qiziqishlarini rag‘batlantirish va ijobjiy ijtimoiy muhitda tarbiyalashdir. Bu orqali kelajakda psixologik jihatdan barkamol, ijtimoiy faol va intellektual jihatdan rivojlangan avlod shakllanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев К. Бола psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
2. Выготский Л.С. Razvitie vysshikh psikhicheskikh funktsiy. – Moskva: Pedagogika, 1986.
3. Пиаже Ж. Rech i myshlenie rebenka. – Moskva: Akademicheskiy proyekt, 2001.
4. Назарова Н.Т. Psixologiya ran'ego detstva. – Toshkent: Sharq, 2020.
5. Хайдаров А. Бола psixologiyasi va tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Erickson E. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton & Company, 1993.
7. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979.
8. Santrock J.W. Children’s Development. – New York: McGraw-Hill, 2011.

Date: 5th April-2025

9. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 5(2), 91-95.
10. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
11. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
12. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatsiyalar Jurnali*, 1(6), 611-616.
13. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
14. Шомуротов , У. . (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 2(3), 178–181.
15. Melikboboyevich, S. U., Zafar o'g'li, S. L., Eshqul o'g'li, S. J., & Abbas o'g'li, Q. N. (2025). SHAXSDAGI AGRESSSIVLIKNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(3), 20-22.